

20-Yanvar, 2026-yil

**IJTIMOIIY MEDIA AXBOROTINI KOGNITIV METODLAR YORDAMIDA
KONSTRUKTIV TAHLIL QILISH**

Ruziyev Eldor Ilhomovich

TATU Mustaqil izlanuvchisi

Tel: +998946250020

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy media platformalaridagi axborotlarni konstruktiv tahlil qilishda kognitiv yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot axborotni idrok etish, tahlil qilish va qayta shakllantirish jarayonlarida kognitiv metodlar samaradorligini ko‘rsatadi. Shu orqali ijtimoiy media foydalanuvchilari orasida noto‘g‘ri, manipulyativ yoki chalg‘ituvchi axborotlarning tarqalishini kamaytirish va informatika savodxonligini oshirish imkoniyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy media, axborot tahlili, kognitiv metodlar, konstruktiv tahlil, informatika savodxonligi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется важность когнитивных подходов в конструктивном анализе информации на платформах социальных сетей. Исследование демонстрирует эффективность когнитивных методов в процессах восприятия, анализа и переосмысления информации. Это открывает возможность снижения распространения ложной, манипулятивной или вводящей в заблуждение информации и повышения информационной грамотности среди пользователей социальных сетей.*

Ключевые слова: *социальные сети, анализ информации, когнитивные методы, конструктивный анализ, информационная грамотность.*

Abstract: *This article analyzes the importance of cognitive approaches in the constructive analysis of information on social media platforms. The study demonstrates the effectiveness of cognitive methods in the processes of perception, analysis and re-formation of information. This opens up the possibility of reducing the spread of false, manipulative or misleading information and increasing information literacy among social media users.*

Keywords: *social media, information analysis, cognitive methods, constructive analysis, information literacy.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda ijtimoiy media platformalari global axborot maydonining ajralmas qismiga aylandi. Facebook, Telegram, Twitter, Instagram kabi platformalar foydalanuvchilarga tezkor axborot almashish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu axborotning haqiqiyligi, aniqligi va konstruktivligi ko‘pincha shubha ostida qoladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi axborotni tushunish – bu zamonaviy insonning raqamli hayotidagi eng

muhim kognitiv faoliyatlaridan biridir. Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Telegram, TikTok va boshqalar) zamonaviy axborot oqimining asosiy manbaiga aylangan bo‘lib, bu platformalarda har kuni millionlab postlar, yangiliklar, videolar va foydalanuvchi fikrlari tarqalmoqda. Bunday muhitda har qanday axborotni faqat ko‘rish emas, balki uni tanqidiy tahlil qilish, baholash, haqiqatga yaqinligini aniqlash va undan to‘g‘ri xulosa chiqarish zarur bo‘ladi. Axborotni tushunish bu yerda faqat matn mazmunini anglash emas, balki axborotning emotsional konteksti, niyati, manbasi, tarqatilish uslubi va ijtimoiy ta’sirini ham ko‘zdan kechirishni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, algoritmlar orqali foydalanuvchilarga shaxsiylashtirilgan axborotlar taqdim etilishi, ular ongida yolg‘on yoki biryozlama fikrlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan har qanday kontentni tushunishda insonda raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, emotsional barqarorlik va faktlarni tekshirish ko‘nikmalari mavjud bo‘lishi zarur. Bu jarayon orqali foydalanuvchi faqat iste’molchi emas, balki faol, ongli va mas’uliyatli axborot ishtirokchisiga aylanadi.

Shaxsning bilish faoliyati bilan bog‘liq individual aqliy taraqqiyotini o‘rganish orqali uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi kognitiv psixologiya yo‘nalishi yosh va so‘ngi yondashuv bo‘lishiga qaramay, uning ildizlari uzoq davrlarga borib taqaladi. So‘ngi vaqtlarda kognitiv yo‘nalish tobora mustaqil ilmiy yo‘nalish maqomiga yega bo‘lib, mazkur sohaga oid tadqiqotlarning ko‘lami kengayib, chuqurlashib bormoqda. Chunki insonning bilish jarayonlari, olamni qay tarzda idrok va tasavvur yetishi, unda shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining shakllanish jarayoni bilan bog‘liq masalalar shu sohadagi izlanuvchilarni avvaldan qiziktirib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari shaxsning dunyoqarashi, tafakkuri, aqliy-intellektual sifatlari, idroki va tasavvurlari ham tadrijiy ravishda o‘zgarib boradi. Bu borada psixologik tadqiqotlarda kognitiv yondashuvning o‘rganilishi, uning tadqiqi va zamonaviy psixologiyada tutgan o‘rnini tahlil etish nuqtai-nazaridan to‘xtalib o‘tish mumkin. Shaxsga doir kognitiv nazariya gumanistik maktab vakillari qarashlariga yaqin bo‘lsada, muhim tafovutlarga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kognitiv nazariya asoschisi sifatida amerikalik psixolog Dj.Kelli (1905-1967) tilga olinadi. Uning fikriga ko‘ra shaxs faqat bir narsani-hayotda nima ro‘y bergani va ro‘y berishi mumkinligini bilishni istaydi deb ta’kidlaydi. Shaxs taraqqiyotining asosiy manbai, Kelli fikriga ko‘ra, ijtimoiy muhit sanaladi. Kognitiv nazariya inson xulqiga intellektual jarayonlar ta’siriga alohida urg‘u qo‘yadi. Mazkur qarashda har bir odam bzljak hodisalarni oldindan bilish imkoniyatini beradigan ashyolar tabiati to‘g‘risidagi farazlarini tekshiruchi olimga qiyoslanadi. Har qanday hodisa ko‘rkarra talqin etilish imkoniyatiga ega. Ushbu yo‘nalishdagi asosiy tushuncha “konstrukt” tushunchasidir (ing.construct- qurmoq). Bu tushuncha ma’lum bilish jarayonlar xususiyatlarini (idroki, xotira, tafakkur, nutq) qamrab oladi. Konstruktlar sharofati tufayli odam nafaqat olamni anglaydi, balki shaxslararo munosabatlarni ham o‘rnatadi. Mazkur munosabatlar negizida yotgan konstruktlar shaxsga

doir konstruktlar deb nomlanadi. Konstrukt-bu odam o‘zini va o‘zgalarni idrok etish usulini belgilaydigan o‘ziga xos klassifikator ya’ni qolipdir. [1]

Kognitiv yondashuvning ustivor unsuri shaxsga doir konstruktlardir. U o‘z navbatida ikki darajalidir:

1. Ustivor konstruktlar bloki-konstrukt tizimi yuqorisida joylashgan 50 ga yaqin asosiy konstruktlar. Shaxs ushbu konstruktlerden boshqalar bilan o‘zaro ta’sirga kirish maqsadida ko‘p foydalanadi ya’ni ong markazida turadi.

2. Periferik konstruktlar bloki-qolgan barcha konstruktleri tashkil qiladi. Ushbu konstruktler individual hosilalar bo‘lgani bois bir necha yuzlabdan bir necha minglabgacha bo‘lishi mumkin.

Shaxs xususiyatlari mazkur ikki blok konstruktleraning birgalikdagi ishlash natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxslarning ikki toifasi farqlanadi: kognitiv murakkab shaxs (ko‘plab konstruktlerga ega shaxs) va kognitiv sodda shaxs (oz miqdordagi konstruktlerga ega shaxs). Kognitiv jihatdan murakkab shaxs kognitiv sodda shaxslardan quyidagi sifatlari bilan ajralib turadi:

- 1) Psixik salomatligi ancha yaxshi;
- 2) Stresslarni samarali bartaraf etadi;
- 3) O‘ziga bergan bahosi yetarli darajada baland;
- 4) Yangi vaziyatlarga tez moslashadi. [2]

So‘ngi vaqtlarda konitiv uslublarning psixologik tadqiqotlarda qo‘llanilishi va uslublar orqali shaxsning konstruktlerini qay darajada rivojlanganligini va bilish faoliyatining psixologik mexanizmlari keng yoki torligini aniqlash mumkin. Psixologik tadqiqotlarda kognitiv uslublarning o‘ndan ortiq turlari qo‘llaniladi. Kognitiv uslublarni hozirgi davrgacha fundamental jihatdan o‘rgangan psixolog M.A.Xolodnaya sanaladi. M.A.Xolodnaya kognitiv uslublarning fenomenologik asoslarini tadqiq etgan. Shulardan bir nechtasini keltirib o‘tamiz:

Maydonga tobe-maydondan ozod. Bu kognitiv uslub qism va butun effektini o‘rganish orqali Uitkin tomonidan ishlab chiqilgan. Maydondan ozod uslub har bir voqelikning ichki qonuniyatlerini ko‘ra oladigan va murakkab qismlarni tez va oson hal qila oladigan shaxslar sanaladi. Maydonga tobe uslub vaziyatni tashqi tomondan baholay oladigan va murakkab qismlarni qiyinchiliklar bilan bajara oladigan mexanizm sanaladi. G.Uitkin maydonga tobe va maydondan ozod uslublarni ichki va tashqi motivlar bilan bog‘lab tushuntirgan. Maydondan ozod shaxslar boshqalarga qaraganda rivojlangan kognitiv tuzilmalarga ega shaxslar sanaladi. Maydonga tobe shaxslar biror bir masalani bajarishda atrofdagi insonlarning ko‘magiga muhtoj bo‘ladilar. Shuning uchun G.Uitkin kognitiv jihatdan ozod shaxsni intellektual kompetentlik bilan, kognitiv jig‘atdan tobe shaxsni ijtimoiy kompetentlik bilan bog‘lagan.[3]

Kognitiv rigid-kognitiv egiluvchan. Bu kognitiv uslub shaxs biror bir faoliyatni ikkinchi bir faoliyatga o‘zgartirishda kechadigan to‘siqlar bilan alohida xarakterlanadi. Rigid kognitiv shaxs bilish faoliyatidan tezlik bilan boshqa faoliyatga o‘tganda

20-Yanvar, 2026-yil

qiyinchiliklarga duch kelsa, konitiv egiluvchan shaxs faoliyatni oson va qiyinchiliklarsiz boshqa faoliyatga ko‘chirishi bilan belgilanadi. [4]

Kognitiv reflektiv-kognitiv impulsiv. Bu kognitiv uslubdagi insonlar mavhum va noaniq vaziyatlarda tezkor yoki sekinlik bilan qarorlarni qabul qilishda ko‘zga tashlanadi. Kognitiv impulsiv shaxslar qarorlar yoki masalalarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga qarab o‘tirmasdan qabul qiladilar. Kognitiv reflektiv shaxslar har bir masalalarni vazminlik bilan o‘ylab ko‘radilar va oxirgi qarorlarni nazorat ostiga olgan holda amalga oshiradilar.

Kognitiv sodda-kognitiv murakkab. Bu kognitiv uslublar shaxs olamning idrok etilayotgan hodisalarni talqin qilishiga qarab farqlanadi. Dj.Kellining shaxs konstruktleri nazariyasida kognitiv sodda va murakkab shaxslar tiplariga kiradigan shaxslar insonlarni har xil tushunushlarini keltirib o‘tgan. Biror narsa haqida ma’lumot olmoqchi bo‘lsa, insonning tasavvurlari oldingi tasavvurga qaraganda o‘zgarib turishi mumkin. Kognitiv sodda va murakkab shaxslar boshqalarni to‘g‘ri tushuna olishi, muloqotchanligi va intellektual topshiriqlarni bajara olishi bilan alohida harakterlanadi.

Psixologik tadqiqotlarda kognitiv uslublarning turli hil yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlari kognitiv uslublarning o‘rnini yanada boyitishga xizmat qiladi. Kognitiv uslublarning turli hil jihatlarini quyidagi tadqiqotlarda ko‘rish mumkin: L.A.Jerdevaning “maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanish darajasining reflektiv-impulsiv xususiyatlari” mavzusidagi tadqiqotlari va xavotirlanishni keltirib chiqaruvchi ta’lim jarayonidagi qiyinchiliklarga impulsiv uslublarning ta’siri va bunga qarshi bolalarda reflektivlikni shakllantirish omilining aloqadorligini tadqiq etishi [5], S.A.Pecherskayaning “O‘quv jarayonida kognitiv uslublarning o‘quvchilar munosabatlariga ta’siri” mavzusidagi ishida o‘quvchilar o‘rtasida shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda uslublar ta’sirining o‘rni ochib berilganligi [6], V.Yu.Xiskayaning “Oliy ta’limda birinchi bosqich talabalarining moslashuv jarayonida kognitiv uslublarning o‘zaro aloqalari” mavzusidagi ishida talaba ta’lim jarayoniga to‘laqonli moslashib ketishida kognitiv uslublarni o‘stirishga alohida ahamiyat qaratishi [7], N.V.Sherbakovaning “Siyosiy liderlarda kognitiv uslublarni aniqlashda psixologik yondashuv” mavzusidagi tadqiqotlarida siyosiy liderlikni o‘stirishda tilning ichki qonuniyatlarini bilishi va uslublarning til bilan bog‘liq xususiyatlarini o‘zaro integratsiyalashuvining tadqiqi va Ye.L.Korobovanning “Shizofreniya kasalligi va kognitiv uslublar” doirasida amalga oshirilgan amaliy tadqiqot ishida shizofreniya kasalligiga chalingan bemorlar kognitiv uslublari o‘rganilgan va qaysi uslublarning ta’siri natijasida shizofreniya kasalligiga sabab bo‘luvchi omillarning tahlili keltirib o‘tilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, psixologik tadqiqotlarda kognitiv uslublarning asosiy yo‘nalishlari psixologiya sohasida amalga oshiriladigan tadqiqotlarning izchilligi va ko‘lamini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, kognitiv uslublarning ko‘rinishlarini bugungi davrdagi ahamiyati shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘stirishga, igsonlarni bir-biridan farqlash imkoniyatini hosil qilishga, ta’lim jarayonidagi qiyinchiliklarni oldini

20-Yanvar, 2026-yil

olishga, kognitiv uslublar shakllanganligiga qarab kasbiy saralash ishlarini yo‘lga qo‘yishga va turli hildagi ma’lumotlarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Русалов В.М. Когнитивная теория личности, Психология. Учебник для гуманитарных ВУЗов. – СПб.: Питер, 2003. – 656 с.
2. Дружинина В.Н. Психология. Учебник для гуманитарных ВУЗов. – СПб.: Питер, 2003. – 656 с.
3. Холодная М.А. Когнитивные стили. О природе индивидуального ума. 2-изд. – СПб.: Питер.2004. – 384 с.
4. Холодная М.А., Кострикина И.С. Особенности когнитивных стилей импульсивность/рефлексивность и ригидность/гибкость познавательного контроля у лиц с высокими и сверхпороговыми значениями IQ//Психологический журнал, 2002.- № 6. – С.72-82.
5. Жердева Людмила Алексеевна. Особенности проявлений когнитивного стиля “импульсивность-рефлексивность” у тревожных школьников: 19.00.13 Жердева, Людмила Алексеевна Особенности проявлений когнитивного стиля "импульсивность-рефлексивность у тревожных школьников (Младший школьный и подростковый возраста): Дис. ... канд. психол. наук: 19.00.13 Москва, 2005 164 с.
6. Печерская Светлана Александровна. Влияние соотношения когнитивных стилей учителя и учащихся на эффективность учебного процесса: Дис ... канд. психол. наук: 19.00.07: Сочи, 1997.- 168 с.
7. Хицкая Виктория Юрьевна. Учет когнитивных стилей как средство адаптации студентов первого курса к обучению в вузе: Дис канд. пед. наук : 13.00.08 : Москва, 2002.- 135 с.
8. MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]